**MAKSUDOVA Shahlo**
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi*

**SADIKOV Yusupdjan**
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o‘qituvchisi*

# O‘ZBEKISTONDAGI BUDDIZM DINIGA OID ZIYORAT TURIZMI OBYEKTLARI

# ПАЛОМНИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ-ОБЪЕКТЫ БУДДИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

# PILGRIMAGE TOURISM -OBJECTS OF BUDDHISM IN UZBEKISTAN

***Annotatsiya****. maqolada O‘zbekistonda mavjud buddizm obidalari ziyorat turizmini rivojlantirishning yangi yo‘nalishi sifatida tadqiq etilgan. Toshkent shahridagi buddizm ibodatxonasi, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlari hududida joylashgan buddizm obidalari asosida ziyorat turizmini tashkil etish imkoniyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xususida ma’lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ziyorat turizm, buddizm, xristian, islom, buddizm obida, madaniy meros.*

***Аннотация.*** *в статье рассматриваются существующие буддийские памятники в Узбекистане как новое направление развития паломнического туризма. Проанализированы возможности организации паломнического туризма на базе буддийского храма в Ташкенте, буддийских памятников, расположенных в Сурхандарьинской и Ферганской областях. Также дана информация о реализуемых мерах по развитию паломнического туризма.*

***Ключевые слова:*** *Паломнический туризм, буддизм, христианство, ислам, буддийские памятники, культурное наследие.*

***Annotation.*** *the article examines the existing Buddhist monuments in Uzbekistan as a new direction for the development of pilgrimage tourism. The possibilities of organizing pilgrimage tourism based on the Buddhist temple in Tashkent, Buddhist monuments located in Surkhandarya and Fergana regions were analyzed. Also, information is given on the measures implemented for the development of pilgrimage tourism.*

***Key words:*** *Pilgrimage tourism, Buddhism, Christianity, Islam, Buddhist monuments, cultural heritage.*

## KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ziyorat turizmni o‘rganishga katta qiziqish uyg‘ondi. Shuni aytish kerakki, eski sovet tuzumi davrida har qanday diniy jarayon e’tibordan chetda qolar edi. Hozirgi vaqtda jamiyat o‘z e’tiborini ko‘proq xalqaro turizm va ziyorat turizmini rivojantirishga qaratilmoqda.

O‘zbekiston ko‘plab madaniyatlar va sivilizatsiyalarning kesishish markazi bo‘lib kelgan, bu yerda turli xil dinlar mavjud bo‘lgan. O‘zbekiston buyuk allomalar yurti hisoblanib kelgan. Shuningdek, butun olamga o‘z nurini taratib kelgan olimlar, islomshunoslar yetishib chiqqan va hozirgi vaqtda ham ularning noyob merosini diyorimizda balki butun jahonda o‘rganib kelishmoqda. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda islom, buddizm va xristian dinlariga tegishli noyob yodgorliklar saqlanib qolgan. Ular orasida buddizm diniga oid ziyorat obyektlari alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda turli dinlarga e’tiqod qiluvchi sayyohlarning yurtimizga tashrifi ham ortib bormoqda. Xususan, Surxondaryodagi Fayoztepa, Dalvarzintepa qadimiy yodgorliklari buddizm diniga e’tiqod qiluvchi Yaponiya, Koreya va Xitoy sayyohlarini qadimdan beri o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Shuningdek, Samarqanddagi Doniyor payg‘ambar qabrini islom, yahudiy, xristian sayyohlarni ziyoratga jalb etmoqda. Uch din vakillarini bir maskanni ziyorat qilishi bu O‘zbekiston ziyorat turizmni naqadar bag‘rikeng ekanligini ifodalaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Buxoro viloyati madaniyat va turizm boshqarmasi tomonidan turizm sohasi rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganib, turizm salohiyati

yuqori bo‘lgan 6 ta hudud (Buxoro shahri, G‘ijduvon, Vobkent, Romitan, Shofirkon, Kogon tumanlari)ning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida jamlagan “turizm xaritasi” (3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz) tayyorlanib, o‘rnatildi va tashrif buyuruvchi sayyohlarga bir qator qulayliklar yaratildi[1].

## ASOSIY QISM

1968-yilda qadimgi Termiz hududida Budda haykali topilgan va o‘sha vaqtdan beri bu yer ko‘pgina arxeologlar tomonidan o‘rganiladigan asosiy obyektga aylandi. Keyinchalik eng qadimgi budda ibodatxonalari majmualari hisoblangan Fayoztepa, Kampirtepa, Qoratepa kabi obyektlar kashf etildi. Qadimgi musiqachilarning tasviri bilan mashhur Ayritom frizining elementlari topilishi bu mintaqa hududida buddizm targ‘ib qilinganligi va ellinistik madaniyat elementlari oshkor bo‘lganligidan dalolat beradi.

Termizdagi Fayoztepa – Buddaviylik merosining mo‘jizasi hisoblanib, ushbu ibodatxona majmui bundan 2000 yil ilgari Kushon podsholigi davrida barpo etilgan. Fayoztepa yodgorligi nomi 1968-yilda bu yerda boshlangan arxeologik tadqiqot ishlarida arxeolog olimlarga ko‘p amaliy yordam ko‘rsatgan Surxondaryo o’lkashunoslik muzeyi direktori R.F.Fayozov sharafiga qo‘yilgan. Arxeologik qazishma ishlari natijalari, Fayoztepada Budda tasvirining butun, ya’ni ramziydan toki portret shaklidagi qiyofasi evolyutsion jarayonini ko‘rsatib berdi. Kushon imperiyasi o‘z davrining eng ko‘p madaniyatli imperiyasi, bu hudud esa buddaviylikning keng tarqalishida asosiy o‘rin tutgan o‘lka hisoblanadi.

Fayoztepa stupasi atrofidagi hududni tadqiq etish asosida, Sh.R.Pidayev, ilk stupa, shuningdek monastir majmuasi qurilish davrini eramizning I asri ikkinchi asridan avval bo‘lmagan deya fikr bildirdi. Ushbu stupa barabani asosi va uning asosida yirikroq stupa qurilishi Kanishka I hukmronligi davri deb aniqlandi. Markaziy bino va shimoldan unga tutash yirik hovlidan iborat Fayoztepa yer usti buddaviylik monastiri vujudga kelishi eramizning I asri birinchi yarmi Soter Megas hukmronligi davrida sodir bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-mart kunidagi “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4229-sonli Qaroriga asosan, Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi tarkibida tashkil etilgan, Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi tomonidan joriy yil 5 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma’lumotlar taqdim etildi.

Dastavval Surxondaryo viloyatidagi 101 ta turistik infratuzilma obyektlari haqida alohida to‘xtalib, shundan Islom ziyoratgohlari 31 ta, buddizm yodgorliklari 7 ta, arxeologiya va tarixiy me’moriy yodgorliklar 29 ta, tabiat zonalari 15ta, Eko-gastro turizm zonasi 1 ta, madaniy ko‘ngilochar maskanlar 12 ta va tabobat zonalari 4 ta va boshqa turizm namoyishi obyekti 2 tasi faoliyat olib borishlari ta’kidlandi[2].

Bundan tashqari, 2022-yil 17-yanvar kuni mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish, Isroil davlatidan yahudiy ziyoratchilarni Samarqand viloyatiga jalb etish yuzasidan olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish, shuningdek, faol targ‘ibot ishlarini olib borish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Isroil davlatidagi favqulodda va muxtor elchisi Feruza Mahmudova Samarqandga tashrif buyurdi. “Ipak yo‘li” xalqaro turizm va madaniy meros universitetida Isroil davlati bilan hamkorlikda ishlaydigan turisrik firmalar mas’ullari bilan uchrashuv tashkil etilib, yahudiy ziyoratchilarni jalb etishda alohida ahamiyat berish lozim bo‘lgan yo‘nalishlar yuzasidan elchi o‘z tavsiyalarini berdi[3].

2021-yil 12-iyun kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “Buddizm obidalari – ziyorat turizmini rivojlantirishning yangi yo‘nalishi” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Ushbu ilmiy anjuman Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida davlat ilmiy dasturlari doirasida bajarilayotgan “Respublikamiz hududlaridagi buddizm obidalari turmarshrutlarining 3D modellarini yaratish” innovatsion loyiha natijalarini muhokama qilish maqsadida tashkil etildi. Konferensiyada turizmning yangi yo‘nalishlarini O‘zbekistonda rivojlantirishning ilmiy-nazariy jihatlari; buddaviylik tarixi va bu boradagi tadqiqotlar; O‘zbekistondagi buddaviylik obidalari va ziyorat turizmini tashkil qilishning jahon

tajribasi va undan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, xalqaro turizm bozoriga integratsiyaning ahamiyatini ochib berishga oid masalalar atroflicha muhokama qilindi[4].

Turizm sohasi hozirgi vaqtda xalq xo‘jaligining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u milliy iqtisodiyotning barcha jabhalariga ijobiy ta’sir etib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ham taboro ortib bormoqda.

O‘zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur resurslarga ega. Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. Bugungi kunda dunyoviy ahamiyatga molik yuzlab tarixiy yodgorliklar, yurtimizda yashayotgan xalqlarning ma’naviy-etnik merosi, tog‘lar, dasht va cho‘llarni o‘z ichiga olgan go‘zal va betakror tabiati hamda zamonaviy infratuzilma bularning barchasi dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarni O‘zbekistonga jalb qilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizning turistik resurslari hali to‘laligicha o‘rganilayotgani yo‘q. Buning uchun samarali kadrlarning kamligi, yangidan-yangi loyihalarning ishlab chiqarilmayotgani, reklama yaxshi rivojlanmaganligi ham turizmni rivojlanishida to‘siq bo‘lyapti. Ayrim hududlardagi resurslar faqatgina mahalliy aholigagina ma’lumdir. Shunday ekan, ularni yangi turistik marshrutlar ishlab chiqishda foydalanish uchun har tomonlama tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

2023-yil 26-iyulda O‘zbekistonning turizm salohiyatidan samarali foydalanish va sayyohlarga qulayliklar yaratish maqsadida Buxoro shahrida haftasiga 7 kun, sutkasiga 24 soat davomida xizmat ko‘rsatuvchi mobil bozor faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Qayd qilinishicha, “Tungi mobil bozor” faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi xorijlik va mahalliy sayyohlar uchun turizm xizmatlari turlarini oshirish va turizm obyektlarining infratuzilmasini tubdan yaxshilash, xususan, sayyohlarni O‘zbekistonning moddiy va nomoddiy madaniy merosi bilan yaqindan tanishtirish imkonini beradi. Maskandagi binolar Buxoro, Toshkent, Samarqand, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlarining ramziy darvozalari maketi ko‘rinishida qurilgan. U yerda o‘zbek milliy taomlarini tayyorlaydigan umumiy ovqatlanish shoxobchalari, suvenirlar sotiladigan do‘konlar, hunarmandchilik rastalari bor. Shuningdek, o‘ziga xos tematik uslubdagi yoritish moslamalari bilan ta’minlangan. Bu nafaqat mahalliy sayyohlarni balki boshqa dinga mansub sayyohlarini ham o‘ziga e’tiborini tortmoqda.

Xususan, prezidentimizning qarorlari tufayli 2024-yil 1-yanvardan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslarning sayohat qilishlari uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan “To‘siqsiz turizm” dasturi amalga oshiriladi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida ko‘zda tutilgan. Dastur doirasida har yili “Sayohat barcha uchun!” loyihasi doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ming nafardan nogironligi bo‘lgan shaxslarning respublikaning turizm salohiyati yuqori bo‘lgan shaharlariga bepul sayohatlari tashkil qilinadi[5].

Shuningdek, turizm, madaniy meros, konsert-tomosha obyektlari hamda aeroport, avto va temir yo‘l vokzallarida nogironligi bo‘lgan shaxslarning to‘siqsiz harakatlanishi uchun zarur infratuzilma yaratish mexanizmlari joriy qilinadi. Bu nafaqat islom diniga mansublar uchun balki boshqa dinga mansublar va daromadi kam bo‘lgan kishilar uchun ham qulay va maroqlidir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda nafaqat islom dini, qolaversa, boshqa din vakillari uchun ham ziyorat turizmini tashkil etish imkoniyatlari mavjud. Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlari hududida joylashgan buddizm obidalari asosida ziyorat turizmini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA

Turizm qadim zamonlardan boshlab sayyoramiz xalqlari o‘rtasida ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini mustahkamlashga xizmat qilgan. Shuningdek, ba’zi mamlakatlarning asosiy manbayiga aylangan sohalardan biri hisoblanadi. Odamlar yangi o‘lkalarni kashf etish, dunyoni ko‘rish va bilish, savdo-sotiqni

rivojlantirish, madaniy va diplomatik aloqalarni o‘rnatish maqsadida sayohatga chiqqanlar. Savdo karvonlari yo‘llari kesishgan, madaniyatlar va sivilizatsiyalar tutashgan chorrahada joylashgani uchun Markaziy Osiyo mintaqasi bu jarayonda muhim o‘rin tutgan.

Yurtimizda O‘zbekistondagi buddizm diniga oid **ziyoratgohlarni rivojlantirish uchun bir qator ishlar amalga oshirildi. Buddizmga oid ziyorat turizmini rivojlantirishdagi asosiy muammolar yechildi. Ziyorat turizmi uchun diniy qadamjolarning o‘zi yetarli emas. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ziyorat turizmi rivojlantirish muhim bo‘lib, iqtisodiy-ijtimoiy va innovasion salohiyatini kengaytirish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ko‘zda tutilmoqda.**

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. https://yuz.uz/uz/news/o-dopolnitelnx-merax-po-uskorennomu-razvitiyu-turistskogo-potentsiala-respubliki-a-takje-dalneyshemu-uvelicheniyu-kolichestva-mestnx-i-inostrannx-turistov
2. https://iiv.uz/news/surxondaryoda-sayyohlar-xavfsizligini-taminlashda-ozaro-hamkorlik-mavzusida-matbuot-anjumani-tashkil-etildi
3. https://uzbektourism.uz/
4. https://tsuos.uz/buddizm-obidalari-ziyorat-turizmini-rivojlantirishning-yangi-yonalishi-mavzusidagi-ilmiy-amaliy-konferensiya/
5. https://uzbektourism.uz/ru/news/view?id=2840
6. uzbekistan.trevel
7. https://tsuos.uz/buddizm-obidalari-ziyorat-turizmini-rivojlantirishning-yangi-yonalishi-mavzusidagi-ilmiy-amaliy-konferensiya/
8. https://yuz.uz/uz/news/buddizm-obidalari--ziyorat-turizmining-yangi-yonalishi-
9. https://iiv.uz/news/surxondaryoda-sayyohlar-xavfsizligini-taminlashda-ozaro-hamkorlik-mavzusida-matbuot-anjumani-tashkil-etildi
10. https://uzbektourism.uz/ru/news/view?id=2840
11. Shahlo, Maksudova. “Qastronomik turizmning o‘zbekistondagi ahamiyati.” образование наука и инновационные идеи в мире 26.1 (2023): 34-37.
12. Максудова, Шаҳло, and Гулнора Гулямова. “Зиёрат туризмини ривожлантиришнинг шакллари.” world of science 6.4 (2023): 246-250.